XALQ DEPUTATLARI BAXMAL TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-14-174-3-44-K/25 Baxmal tumani

Baxmal tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Jizzax viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 02-01-01-168-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Baxmal tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-23-350-3-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Baxmal_tumani mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari 116 mlrd 721 mln 451 ming so‘m va xarajatlari esa 116 mlrd 721 mln 451 ming so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Baxmal tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 571 000,0 ming so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Baxmal tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda 2026-yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori 2-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq, shuningdek tuman budjeti yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 1 mlrd 355 mln 244 ming so‘m miqdorida belgilansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Meliboyev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (I.Kenjayev), tuman soliq inspeksiyasi (J.Axbo‘tayev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Baxmal tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (E.Kattabekov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Meliboyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ERGASHEV AZIZ MAMARASULOVICH**

Xalq deputatlari Baxmal tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-174-3-44-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Baxmal tuman mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

ming so‘mda

№	Daromad turlari	JAMI	Baxmal tumani
	JAMI	**116.721.451**	**116.721.451**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	**2.957.680**	2.957.680
2	Foyda solig‘i	**389.200**	389.200
3	Aylanmadan olinadigan soliq	**7.757.000**	7.757.000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	**56.646.168**	56.646.168
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	**1.222.290**	1.222.290
	Aksiz solig‘i jami	**1.897.200**	1.897.200
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	**0**	*0*
	pivo	**0**	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	**1.897.200**	*1.897.200*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	**1.930.000**	1.930.000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	**8.390.000**	8.390.000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	**5.109.320**	5.109.320
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	**26.543.293**	26.543.293
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	**1.297.000**	1.297.000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	**1.380.000**	1.380.000
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	**1.700.000**	1.700.000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	**680.000**	680.000
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	**1.000**	1.000
14	Davlat boji	**420.400**	420.400
15	Yig‘imlar	**221.000**	221.000
16	Jarimalar	**474.900**	474.900
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	**85.000**	85.000

Xalq deputatlari Baxmal tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-174-3-44-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori
PROGNOZI

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Baxmal tumani	0%	55%	100%	45%	0%	80%	100%	20%	100%	100%	0%	0%	0%	10%	100%	90%	0%	0%	100%	100%

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Baxmal tumani	0%	0%	100%	100%	0%	90%	100%	10%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB								
1	Baxmal tumani	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	0%	10%	90%	10%	90%	10%	90%

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i		Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	
		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
1	Baxmal tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%

Xalq deputatlari Baxmal tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-174-3-44-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Baxmal tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

		ming so'mda
№	**Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi**	**Baxmal tumani**
Xarajatlar miqdori, jami		**116.721.451**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*37.866.848*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*5.500.200*
2	Madaniyat bo‘limi	*3.535.647*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*4.112.275*
4	Sport bo‘limi	*5.261.685*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1.258.962*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*3.841.962*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*1.000.482*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2.567.220*
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*0*
10	Hokimiyat	*32.415.003*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*17.084.618*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2.749.000*
	Zahira jamg‘armasi	*1.355.244*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*1.030.975*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*1.030.975*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	23.830.392
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Baxmal tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-174-3-44-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Baxmal tuman mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Mahalliy budjet soliq tushumlari	O‘tkazib beriluvchi daromadlar	Yuqori budjetdan ajratiluvchi tartibga soluvchi transfert miqdori	Xarajat	Farqi
JAMI	**116.721.451,0**		**0,0**	**116.721.451,0**	**0,0**
Baxmal tumani	116.721.451,0	0,0	0,0	116.721.451,0	0,0

Xalq deputatlari Baxmal tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-174-3-44-K/25 -son qaroriga
5-ilova

2026-yilda Baxmal tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Baxmal tumani	**571.000,0**